XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT SHAHAR KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 24 - noyabr VI-93-254-14-0-K/23 Toshkent shahar hokimligi

Chilonzor tumanidagi “Oqtepa” mahallasini qayta nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi, “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi va “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunlari hamda Vazirlar Mahkamasining “Shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida” 2014-yil 4-martdagi 48-son hamda “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida” 2012-yil 16-oktabrdagi 295-son qarorlariga asosan xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha Toshkent shahar komissiyasining 2023-yil 14-sentabrdagi 6-sonli yig‘ilish bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Chilonzor tumani hokimligining tumandagi “Oqtepa” mahallasini qayta nomlash to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

3. Chilonzor tumanidagi “Oqtepa” mahallasining nomi “Chilonzor-Oqtepa” nomiga o‘zgartirilsin.

4. Toshkent shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (M.Isabayev), Chilonzor tumani hokimligi (S.Xolxo‘jayev) qayta nomlanayotgan mahalla yuzasidan kiritilgan o‘zgartirish bo‘yicha mahalla fuqarolar yig‘ini aholisi

o‘rtasida tegishli tushuntirish ishlarini olib borsin.

5. Toshkent shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (M.Isabayev), Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi Toshkent shahar boshqarmasi (J.Karimov), Toshkent shahar Soliq boshqarmasi (Y.Nasimdjanov), Toshkent shahar Statistika boshqarmasi (L.Mirsoatov), Toshkent shahar hokimligi Obodonlashtirish bosh boshqarmasi (R.Yusupov) mazkur qarorga asosan tegishli hujjatlarga o‘rnatilgan tartibda o‘zgartirishlar kiritsin hamda bu borada zarur choralarni ko‘rsin.

6. Toshkent shahar hokimligi Matbuot xizmatiga mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishi va www.toshkent.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlash tavsiya etilsin.

7. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

8. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi Sh.Sagdullayev, Toshkent shahar hokimining o‘rinbosarlari S.Obidov va A.Xen zimmasiga yuklansin.

Sessiya raisi **T. Matibayev**